



INGLIZ TILIDA "SOUL" KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA  
IFODALANISHI

Goipova Saidaxon Madaminjon qizi

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "soul/ ko'ngil" leksemasining frazeologik birliklarda qo'llanilishi va uning turli xil ko'chma ma'nolar ifodalanishi misollar bilar yoritib berilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarning tarixiy davrlarga xos lingvomadaniy bosqichma-bosqich rivojlanishi, bu davrlar mobaynida o'sha davrdagi xalqning tarixi, turmush tarsi, urf-odatlar, madaniyatlariga mos frazeologik birliklar paydo bo'lishi va qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, semantika, ko'ngil, leksema, bosh ma'no, ko'chma ma'no, frazema, turg'un birikma

Frazeologik birliklar muayyan tarixiy davrlarga xos lingvomadaniy vaziyatni aks ettirgan holda bosqichma-bosqich rivojlanadi, muayyan xalqning milliy mentalitetini lisoniy kodlar orqali ifoda etadi. Shunday ekan, frazeologik birliklarni to'g'ri va adekvat tarjima qilish uchun tarjima qilinayotgan tilnigina emas, balki ushbu tilning sohiblari bo'lgan xalqning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyatiga doir jihatlarni va uning harbiy sohaga doir salohiyatini muayyan xususiyatlarini yaxshi bilish kerak bo'ladi. Quyidagi biz yuqoridagi fikrlarga misollarni ko'rishimiz mumkin:

(I) won't tell a soul- sirlarini hech kimga oshkor qilmaslik

I won't reveal some confidential information to a single other person.A: "I heard Greg is getting fired, but I don't think even he knows yet." B: "Don't worry, I won't tell a soul."I'm so sorry, I didn't mean to pry! I won't tell a soul! I won't tell a soul, I promise.

Men ba'zi maxfiy ma'lumotlarni boshqa bir kishiga oshkor qilmayman.

B: "Xavotir olmang, men hech kimga aytmayman." Kechirasiz, men hayotingizga aralashmoqchi emas edim! Hech kimga aytmayman, va'da beraman.

Keep body and soul together- arang kun ko'rmoq, zo'rg'a tirikchilik qilmoq

If you do something to keep body and soul together, you do it to earn enough money to buy the basic things that you need to live. 20-year-old Rafael says he's selling firewood to keep body and soul together. Note: You

can also say that you hold body and soul together. For a while he held body and soul together by working as a migrant laborer.

Yashashingiz uchun zarur bo'lgan asosiy narsalarni sotib olish uchun arang ishlab pul topish. 20 yoshli Rafaelning aytishicha, jon saqlash uchun o'tin sotmoqda. Eslatma: Biz buni hold body and soul together birikmasi bilan ham aytishimiz mumkin. Bir muddat mehnat muhojirligida mehnat qilib, jon saqlagan.

(God) rest his/her/their soul- Xudo rahmat qilsin, Alloh rahmatiga olgan bo'lsin!

May this person find peace in the afterlife.My dear father, God rest his soul, worked his whole life so that we would have the opportunities he never had growing up.My grandmother was only 59 when she passed, rest her soul.I can't believe that



Aunt Bobbie has already been gone for two years, God rest her soul.

Aziz otajonim, Alloh rahmatiga olgan bo'lsin , biz u hech qachon erisha olmagan imkoniyatlarga ega bo'lishimiz uchun butun umr mehnat qildi. Buvijonim o'tganlarida atigi 59 yoshda edilar, Alloh rahmatiga olgan bo'lsin!

Bobbi xolaning vafot etganiga ikki yil bo'lganiga ishongim kelmayapti, xudo ruhini shod etsin!

bless my soul- qanday yaxshi!

A mild exclamation of surprise. Tim Smith— bless my soul! I haven't seen you in years! Bless my soul! That cyclist nearly hit me!

can't call one's soul one's own. - To'satdan bo'lgan hodisalarga nisbatan qandek yaxshi bo'ldiya degan ma'noda qo'llaniladi. Tim Smit – seni ko'rib qolganim qandek yaxshi bo'ldiya! Nechi yillardan beri seni ko'rmadim! Qandek yaxshi bo'ldiya!

Ingliz tilida “soul (ko'ngil)” konseptiga oid frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi uslubiy bo'yoqdorlik, ma'no ko'chish va ko'p ma'nolik hodisasi tarjimonga muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, albatta. Bunday holda tarjimaning adekvatligi ko'p jihatdan tarjimonning kasbiy mahoratiga, tarjima usullarini to'g'ri tanlay olishiga bevosita bog'liqdir.

Frazeologizmlar yoki frazeologik birliklar tilning leksik qatlamining e'tiborga molik qismi sanaladi. Shuningdek, ular shu til tashuvchilari bo'lgan xalqning hayot tarzi, xalqning donoligi va urf-odat va an'alarini aks ettiruvchi oynadir. Frazeologik birliklar tilda tasviriy-ekspressiv xususiyatga ega bo'lib, o'zida katta hajmdagi ma'lumotni mujassam etadi.

Frazeologik birliklarni bo'lib o'tayotgan voqeliklarni o'zida mujassam etgan alohida “mikromatn” tarzida ko'rish mumkin. Taniqli rus olimi A.V.Kuninning ta'biri bilan aytganda, “frazeologizmlar real voqelikda mavjud bo'lgan predmetlarni nomlaydi va shuningdek, so'zlovchining ichki tuyg'usi, holatini ifodalash bilan bir qatorda o'sha so'z yuritilayotgan predmetga nisbatan bo'lgan hissiy munosabatini ifodalaydi. Badiiy adabiyotda frazeologik birliklar ifoda vositalarining bor go'zalligini, ifodaliligi va bo'yoqdorligini namoyish qiladi”.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida asliyat tilining o'ziga xos uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish kerak. Aks holda tarjima tili rangsiz, quruq va soxta til tarzida namoyon bo'ladi. Agar o'z ma'nosidagidek tarjima qilinmasa, uni asliyat tilining to'laqonli vakili (namunasi) deb bo'lmaydi. Chunki tilning frazeologik birliklar fondi juda keng va betakror til boyligidir. Ushbu kenglik ifodalanayotgan tilning o'zigagina xos bo'lgan xususiyati ifodalab beradi.

Frazeologik birliklar (frazema) haqida ta'kidlab o'tganimizdek, ular muayyan tilgagina mansub bo'lgan turg'un birikmalardir. Mazkur birikmaning ma'nosi uni tashkil etuvchi komponentlarning alohida oligan ma'nolari yig'indisiga mos kelmaydi.

Frazeologik birliklar yoki turg'un birikmalarni (shuningdek, idiomalar ham) bir tildan boshqa tilga so'zma-so'z o'girish imkonsizdir. Shuning uchun tarjima jarayonida qiyinchilik paydo bo'ladi. Chunki idioma bilan ifodalangan ma'no o'zgarishga uchraydi. Frazeologik birliklar boshqa bir tomondan tilga yorqin emotsional bo'yoq beradi.



Ko'pincha frazeologik birliklarning grammatik ma'nosi til me' yori talablariga mos kelavermaydi, negaki, ushbu ma'no arxaizmga aylangan bo'ladi. Frazeologik birliklar leksik jihatdan tarkibiy qismlarga ajramaydigan va uzoq yillar davomida tilda shakllanib turg'un birikma holatiga kelgan tayyor mahsulotdir. Masalan: bare one's soul- ko'nglini kimgadur ochmoq yoki yormoq, dardlashmoq; to tell someone your secret thoughts and feelings: - his-tuyg'u, fikrlari, sirlarini, o'ylarini kimgadur aytmoq. Masalan: We don't know each other that well. I certainly wouldn't bare my soul to her. Keep body and soul together .

The act of confessing one's misdeeds alleviates stress and guilt. You'll feel better if you just tell mom that you broke the vase. Open confession is good for the soul, after all. A: "Do you think Jenny will be able to truly forgive me for this?"

B: "Unfortunately, there's no way to know. But I can tell you that confession is good for the soul." I always feel better after telling my sins to a priest. I guess it's true what they say—open confession is good for the soul.

O'z qilmishiga iqror bo'lish vijdon azobini yengillashtiradi. Onamga vazani sindirib tashlaganingizni aytsangiz, o'zingizni yaxshi his qilasisiz. Ochiq tan olish ruh uchun yaxshi, axir.

B: "Afsuski, bilishning iloji yo'q. Lekin men sizga shuni ayta olamanki, tan olish ruh uchun foydalidir." Ruhoniyga gunohlarimni aytganimdan keyin o'zimni doimo yaxshi his qilaman. O'ylaymanki, ular aytganlari to'g'ri - ochiq tan olish ruh uchun foydalidir.

a kindred soul – ko'ngli yaqin, ko'ngli bir: A person who shares several fundamental beliefs, ideas, convictions, sentiment, attitudes, or interests with oneself.

Bir nechta asosiy e'tiqodlari, g'oyalari, e'tiqodlari, his-tuyg'ulari, munosabati yoki qiziqishlariga bir xil bo'lgan odam. Qalbining yarim bo'lagi, juda yaxshi tushunadigan odam.

Barcha tillada frazeologik birliklarning to'g'ri ma'no bilan ko'chma ma'no o'rtasidagi bog'liqligi yo'qoladi va ko'chma ma'no ularning bosh ifoda vositasi bo'lib qoladi, shuning uchun ularni bir tildan ikkinchi tilga o'girish oson bo'lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Апресян Ю.Д. Дистрибутивный анализ значений и структурные семантические поля// Лексикографический сборник. Вып.V. –М.; Л.: Наука, 1962.– С. 53.
2. Iskandarova SH. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. –Toshkent: O'qituvchi, 2007.–53-183 b.
3. Rahmatullaev SH. Leksema va frazema ma'nosini komponent tahlilining ba'zi natijalari. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1986. - №3. – B. 16-21.
4. Qo'chqortoev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. –Toshkent: «Fan», 1977. – B. 167.
5. БабенкоЛ.Г. Русская глагольная лексика: денотативное пространство Текст.: Монография / Л.Г.Бабенко. – Екатеринбург: Изд-во Урал, 1999.– 460 с.



6. Бенвенист, Э. Общая лингвистика /Текст/. Э. Бенвенист; под ред., с вступит, статьей и комментарием Ю.С. Степанова. – М: Прогресс, 1974. – 447 с.